



IMOM AT-TERMIZIY: ISLOM ILMI VA HADIS ILMIDAGI
ULKAN SIYMO

Mirzamiddinov Asliddin

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institute o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk muhaddis Imom at-Termiziyning hayoti, ilmiy faoliyati va hadis ilmidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Uning "Sunan at-Termiziy" va boshqa asarlari hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uning ilmiy yondashuvlari va islomiy ta'limotga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Imom at-Termiziy, hadis ilmi, Sunan at-Termiziy, islom ilmi, muhaddis, fiqh, hadis to'plamlari, ishonchli hadislar, islomiy meros, shamoil.

Kirish

Mamlakatimizni rivojlantirishning hozirgi bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan allomalarimiz buyuk ma'naviy merosining ahamiyatini o'rganish va zamon talablariga mos ravishda tadbqiq etish, ulamolarning nomlarini abadiylashtirish hamda, nafaqat, mamlakatimiz balki, butun jahon ravnaqiga qo'shgan hissasini munosib e'tirof etish borasida keng ko'lamli xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk hadisshunoslarimiz nomidagi bir qator ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilmoqda. Shu asnod, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2774-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini ta'kidlab o'tish joiz. Markazning asosiy maqsadi Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarining benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrabavaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirishdan iborat.

Islom tarixida buyuk allomalar, muhaddislar va mutafakkirlar ko'p bo'lib, ulardan biri Imom at-Termiziydir. U islom dunyosida yuksak obro' qozongan buyuk muhaddis va olim sifatida tanilgan. At-Termiziy hadis ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan, uning asarlari bugungi kunda ham musulmon olamida e'tirof etiladi. Ushbu maqolada Imom at-Termiziyning hayoti, ilmiy merosi va uning islom ilmidagi o'rni haqida so'z yuritamiz.

Hayoti va ilmiy faoliyati

Imom at-Termiziy to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy bo'lib, hijriy 209-yilda (milodiy 824-yilda) Termiz yaqinida tug'ilgan. U bolaligidan islom ilmlariga qiziqish bildirgan va yoshligida hadis ilmini o'rganish uchun turli yurtlarga safar qilgan. Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi buyuk muhaddislarning shogirdi bo'lib, ulardan hadis ilmining nozik jihatlarini o'rgangan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

U o'zining hayoti davomida islom ilmlarini chuqur o'rganib, ayniqsa hadis ilmi bo'yicha katta obro' qozongan. Uning asosiy maqsadi Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so'zlarini to'plash, tekshirish va sahih hadislarini ajratib olish edi.

Ilmiy merosi

Imom at-Termiziyning eng mashhur asari "Sunan at-Termiziy" yoki "Al-Jome' as-Sahih" bo'lib, u islom dunyosidagi oltita eng ishonchli hadis to'plamlaridan biri hisoblanadi. Bu kitob hadislarining faqat matnini emas, balki ularning ishonchliligini ham tekshirish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, u fiqhiy masalalarga oid ham qimmatli asarlar yozgan. Uning "Kitob al-Ilal" va "Kitob ash-Shamoil an-Nabaviya" asarlari islom ilmidagi muhim manbalardan hisoblanadi. "Kitob ash-Shamoil an-Nabaviya" asari Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning axloqi, odatlari va shaxsiy hayotini tasvirlaydi.

Imom Termiziyning asarlari

1. "Al-Jome' as-Sahih"

Ushbu kitob Imom Termiziyning eng mashhur asari bo'lib, "Sunan at-Termiziy" [1] nomi bilan ham mashhur. U Muhammad (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadislar to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu kitobda hadislar ishonchlilik darajasiga qarab tasniflangan, ya'ni sahih, hasan va zaif hadislar alohida ko'rsatib o'tilgan. Kitob 4000 ga yaqin hadisni o'z ichiga oladi va islom dunyosida oltita asosiy hadis to'plamlaridan biri hisoblanadi. Mazkur asar payg'ambarimiz s.a.v. ning ibodat, axloq, ijtimoiy hayot borasida kelgan hadislarini o'rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur kitobga o'nlab sharhlar bitilgan.

2. "Ash-Shamoil al-Muhammadiyya"

Bu kitobda Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning axloqi, odatlari va hayot tarzi haqidagi hadislar keltirilgan. "Ash-Shamoil"[2] kitobi musulmonlar orasida Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning shaxsiy hayotlari va odob-axloqlarini o'rganish uchun juda muhim qo'llanma sifatida tan olingan. Imom Termiziy bu asarini Rosululloh s.a.v. ga o'xshashga harakat qiladigan har bir mo'min uchun dasturul amal sifatida yozgan.

3. "Al-'Ilal al-Kabir" va "Al-'Ilal as-Saghir"

Bu asarlar ilmiy jihatdan hadislarini tahlil qilishda yordam beruvchi asarlar bo'lib, u yerda hadislarining ishonchlilik darajasi, ularni rivoyat qilgan kishilar (roviylar)ning ishonchli yoki noishonchli ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bu asarlar hadis ilmidagi maxsus tadqiqot uslublarini o'rganish uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

4. "Kitob al-Asmo' val-Kuna"

Ushbu kitobda Imom Termiziy hadis roviylari va ularning ismlari, laqab va kunyalarini bayon qilgan.[3] Bu asar hadis ilmidagi roviylarni tanish va ularning ilmiy salohiyatini baholashda juda muhim bo'lib, hadislarining ishonchliligini aniqlashda asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Imom Termiziyning asarlarining ahamiyati





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Imom Termiziy asarlari musulmon ulamolari tomonidan yuksak baholangan va ko'plab faqihlar va muhaddislar uchun asosiy ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan. Uning asarlarida hadislarni to'plash, tasniflash va ilmiy jihatdan tahlil qilish usullari keyingi asrlar davomida ham islom olamida yuqori baholangan. Ayniqsa, "Sunan at-Termiziy"[4] asari bugungi kunda ham hadis ilmida keng qo'llanilib, ko'plab musulmon madrasalari va ilmiy markazlarda o'rganiladi.

Imom at-Termiziyning hadis ilmidagi o'rni

At-Termiziy hadis ilmini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning yondashuvi shundan iborat ediki, u hadislarni faqat ulamolar tomonidan tasdiqlangan ishonchli manbalardan olgan. Shuningdek, u hadislarning to'g'riligi va ularning fiqhiy ahamiyati haqida batafsil tahlil bergan.

U hadislarning ishonchligi bo'yicha ulamolar o'rtasida kelishmovchiliklarni o'rganib, har bir hadisning qaysi imomlar tomonidan sahih deb topilganini alohida ko'rsatib bergan. Bu uslub keyingi avlod muhaddislar uchun katta yo'nalish yaratdi.

At-Termiziy ko'plab xorijiy mamlakatlarga qilgan safar chog'ida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qilishga ham kirishgan. Safardan qaytgach, olimu fuzalolar bilan ilmiy munozaralarda qatnashadi, ko'plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Ayniqsa, mashhur muhaddis alloma al-Buxoriy bilan ko'plab ilmiy bahslar yuritib undan istifoda qiladiki, bu haqda at-Termiziy o'zining «Al-Ilal» kitobida ta'kidlab o'tadi. At-Termiziyning ko'pchilik tasniflari, jumladan, uning mashhur asari «Al-Jomi'» ham o'z vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan va shu joyda dafn qilingan. O'z ijodiy faoliyati davrida at-Termiziy o'ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, «Al-Jomi'» asari muhim o'rin tutadi. Bu asar «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-Jomi' al-kabiyr» («Katta to'plam»), «Sahih at-Termiziy», «Sunan at-Termiziy» («Termiziy sunnatlari») nomlari bilan ham mashhurdir [7]. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyni yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan[5]. Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. «Al-Jomi' as-sahih» muhim manba sifatida bir necha marta nashr qilingan. Jumladan, 1866 yili Mitohda, 1875 yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini qayd etib o'tmoqchimiz. At-Termiziyning mazkur asariga bir qator mashhur olimlar tomonidan sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 1148 yil) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning «Oridat al-Ahvaziy ala kitob at-Termiziy» nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham «Tuhfat ul-Ahvaziy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

bisharhi at-Termiziy» deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud).

Xulosa

Imom at-Termiziy islom ilmidagi eng mashhur muhaddislar qatoriga kiradi. Uning ilmi va merosi bugungi kunda ham butun musulmon dunyosi tomonidan qadrlanadi. Hadis ilmining rivojiga qo'shgan hissasi, uning ilmiy tekshiruvlari va to'plagan hadislar to'plami islom ilmini o'rganayotgan har bir inson uchun muhim manba hisoblanadi. Uning asarlari nafaqat hadis ilmini o'rganish, balki islomiy hayot tarzini tushunish uchun ham bebaho qo'llanma hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. At-Termiziyning shogirdlari haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Az-Zaxabiy. Siyar a'lom an-nubalo, 13-jild, 271-272-betlar. Nuriddin Atar. Al-Imom at-Termiziy, 30-bet
2. Az-Zahabiy. Siyar, 12-jild, 296-bet; Miyzon al-e'tidol, 3-jild, 198-bet.
3. Bu sharh haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Shokir Mahmud Abdulmun'im, Ibn Hajar va dirosatuhu, 395-bet.
4. Qomus «al-A'om»da (5-jild, 104-bet) bu asar haqida kengroq ma'lumot keltirilgan.
5. Fath al-boriy, 1-jild, 230-bet.
6. Hoji Xalifa, Kashf az-zunun, 1-jild, 376-bet.
7. Al-Muborakfuriy, Siyrat al-imom al-Buxoriy, 376-bet

